



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MIFONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Abduolimova Maftuna Nurulloxon qizi
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi mifonimlar, ya'ni mifologik kelib chiqishga ega bo'lgan onomastik birliklar, lingvokulturologiya nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilinadi. Mifonimlar — xudolar, qahramonlar, afsonaviy joylar va narsalarga nisbatan qo'llaniladigan nomlar tizimi sifatida har bir xalqning dunyoqarashini, tarixiy xotirasini va madaniy kodini o'zida saqlaydi. Maqolada o'zbek mifologiyasiga xos mifonimlar (Alpomish, Zumrad, Semurg', Qoraqush, Oqtemir) va ingliz-grek-rim mifologiyasidan kelib chiqqan mifonimlar (Prometheus, Achilles, Venus, Neptune, Pandora) lingvokulturologik tahlil usuli orqali o'rganiladi. Tadqiqot davomida mifonimlarning zamonaviy tildagi semantik transformatsiyasi, ularning frazeologik iboralarda va badiiy matnlarda saqlanish xususiyatlari, shuningdek, ikki til mifonimik tizimidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalar o'zbek va ingliz lingvokulturalarini solishtirish, tilshunoslik va kulturologiya kesishmasida yangi bilimlar hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mifonim, lingvokulturologiya, onomastika, mifologik nom, semantik transformatsiya, madaniy kod, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek va ingliz tillari.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МИФОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдуолимова Мафтуна Нуруллохон кизи
Ферганский государственный университет, преподаватель, PhD

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ мифонимов узбекского и английского языков — ономастических единиц мифологического происхождения — в аспекте лингвокультурологии. Мифонимы как система наименований богов, героев, мифических мест и предметов сохраняют в себе мировоззрение, историческую память и культурный код каждого народа. В статье анализируются мифонимы, характерные для узбекской мифологии (Алпомиш, Зумрад, Семург, Қорақуш, Оқтемир), и мифонимы, восходящие к англо-греко-римской мифологии (Прометей, Ахиллес, Венера, Нептун, Пандора), с использованием метода лингвокультурологического анализа. В ходе исследования определяются семантические трансформации мифонимов в современном языке, особенности их сохранения во фразеологических оборотах и художественных текстах, а также сходства и различия в мифонимических системах двух языков. Результаты исследования служат основой для сопоставления узбекской и английской лингвокультур и формирования новых знаний на пересечении языкознания и культурологии.

Ключевые слова: мифоним, лингвокультурология, ономастика, мифологическое имя, семантическая трансформация, культурный код, сравнительное языкознание, узбекский и английский языки.

LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF MYTHONYMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abduolimova Maftuna Nurulloxon qizi
Fergana State University, Lecturer, PhD

Abstract

This article presents a comparative analysis of mythonyms in Uzbek and English — onomastic units of mythological origin — from the perspective of linguoculturology. Mythonyms, as a system of names assigned to gods, heroes, mythical places and objects, preserve the worldview, historical memory and cultural code of each people. The study examines mythonyms characteristic of Uzbek mythology (Alpomish, Zumrad, Semurg, Qoraqush, Oqtemir) alongside mythonyms derived from Anglo-Greco-Roman mythology (Prometheus, Achilles, Venus, Neptune, Pandora), applying the method of linguocultural analysis. The research identifies semantic transformations of mythonyms in contemporary language use, the patterns of their preservation in phraseological units and literary texts, as well as similarities and differences between the mythonymic systems of the two languages. The findings serve as a foundation for comparing Uzbek and English linguocultures and generating new knowledge at the intersection of linguistics and cultural studies.

Keywords: mythonym, linguoculturology, onomastics, mythological name, semantic transformation, cultural code, comparative linguistics, Uzbek and English languages.

Til — bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning butun ma'naviy boyligi, tarixi va dunyoqarashi mujassamlashgan tizimdir. Ushbu tizimning eng noyob qatlamlaridan biri — mifologik nomlar, ya'ni mifonimlardir. Mifonimlar deganda avvalo xudolar, qahramonlar, afsonaviy mavjudotlar, joylar va narsalarga berilgan nomlar tushuniladi. Bu nomlar oddiy leksik birlik emas: ularning har biri orqasida yuz yillar davomida shakllangan madaniy ma'no, ramziy qiymat va xalq xotirasining muhim bir bo'lagi yashiringan. Shu sababli lingvokulturologiya fani, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi yo'nalish, mifonimlarni tahlil qilishda ayniqsa samarali metodologiya taklif etadi.

O'zbek va ingliz tillari bir-biridan jug'rofiy, tarixiy va madaniy jihatdan uzoq bo'lsa-da, ularning har birida mifonimlar tilning semantik va frazeologik qatlamlarida alohida o'rin egallaydi. O'zbek xalq mifologiyasi, Alpomish dostoni, Avesto va qadimgi turk eposiga asoslangan mifonimik tizim o'ziga xos, boy va rang-barang. Ingliz tili esa qadimgi grek, rim va skandinaviya mifologiyasining bir qismini o'zlashtirgan holda o'zining mifonimik qatlamini shakllantirgan. Ikkala tilda ham mifonimlar zamonaviy tilga kirib, yangi semantik ma'no kasb etgan yoki ramziy ma'noda qo'llanila boshlagan. Aynan shu umumiy va farqli jihatlar qiyosiy lingvokulturologik tadqiqotga keng imkoniyat ochadi.

Lingvokulturologiya fani doirasida mifonimlarni o'rganish ishlari V. N. Teliya, V. A. Maslova, E. S. Kubryakova kabi olimlarning asarlarida nazariy poydevor topgan. O'zbek tilshunosligida esa onomastika va mifologik nomlarning lingvistik tahlili Sh. Shoabdurahmonov, H. Hasanov, B. Tursunov kabi tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Biroq o'zbek va ingliz tillaridagi mifonimlarni qiyosiy-lingvokulturologik nuqtai nazardan maxsus tahlil qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar hali yetarlicha rivojlanmagan. Ushbu maqola shu bo'shliqni qisman to'ldirish maqsadida yozilgan.

Mifonimlarning lingvokulturologik tahlili bir necha asosiy yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, mifonimning etimologik va mifologik mohiyatini, ya'ni u qaysi mifologik tizimdan kelib chiqqanini va dastlabki ma'nosini aniqlash zarur. Ikkinchidan, ushbu nomning zamonaviy tilda qanday semantik transformatsiyaga uchrashi, ya'ni dastlabki mifologik ma'nodan umumlashgan yoki majoziy ma'noga o'tish jarayoni o'rganiladi. Uchinchidan, mifonimdagi madaniy kodni ochish — bu nom orqali ifodalanayotgan qadriyat, e'tiqod yoki xalq dunyoqarashining qaysi qirrasini aks ettirishini ko'rsatish — tadqiqotning markaziy vazifasiga

aylanadi.

O'zbek mifologiyasida Alpomish nomi alohida o'rin tutadi. Bu nom o'zbek eposining bosh qahramoniga tegishli bo'lib, u kuch, adolat, vatanga muhabbat va sabr-qanoat timsoli sifatida xalq ongida mustahkam joylashgan. Zamonaviy o'zbek tilida «Alpomishdek bahodir» iborasi konkret bir odamga emas, balki ulug' jasurlik va mardlikning umumlashgan ramziga nisbatan qo'llaniladi. Bu yerda mifonimning desemantizatsiya jarayoniga — ya'ni alohida shaxs nomidan umumiy ma'no kasb etgan belgiga aylanish jarayoniga — yaqqol misol ko'ramiz. Xuddi shuningdek, Semurg' nomi o'zbek va fors mifologiyasida ulug' donolik va ezgulik ramzi bo'lgan afsonaviy qush sifatida maydonga chiqadi. Bu nom ham zamonaviy nutqda, badiiy adabiyotda yuksak ma'naviy idealning timsoli sifatida faol qo'llaniladi.

Ingliz tilida antik mifologiyadan o'zlashgan mifonimlar ham xuddi shu yo'l bilan semantik transformatsiyaga uchragan. Masalan, Prometheus nomi yunoncha mifologiyada odamlarga olov o'g'irlab bergan titan hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilida «a Promethean figure» iborasi ijdod, isyon va insoniyat farovonligi yo'lida qurbon ketishga tayyor bo'lgan shaxsni anglatadi. Prometheus mifoning madaniy-ma'naviy yukini o'zida saqlab qolgan holda yangi semantik qatlamni kashf etgan. Achilles nomi ham o'xshash taqdirga ega: «Achilles' heel» frazeologik iborasi kuchli shaxsning yagona zaif tomonini ifodalovchi umumtil birligiga aylangan va bu ibora ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Ikki tildagi mifonimlarni solishtirish jarayonida bir qancha o'xshashliklar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, ikkala tizimda ham mifonimlar ko'pincha inson xarakterining ma'lum bir qirrasini — jasurlik, donolik, sevgi, hiyla, adolat — ning ramziy ifodasiga aylanib ketadi. O'zbek Zumradining sofliigi va sadoqati, ingliz Venusining go'zalligi va muhabbati — ular har xil madaniy tizimdan kelib chiqqan bo'lsa-da, inson qadriyatlarining universal qirralarini aks ettiradi. Bu holat tillararo mifonimik parallelizmning, ya'ni turli madaniyatlarda bir xil insoniy tushuncha atrofida shakllanadigan mifonimik tasvirlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Farqlar esa asosan mifonimlarning madaniy konteksti va tarqalish doirasida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi mifologik nomlar ko'pincha xalqaro miqyosda — ilmiy atamalar, astronomik ob'ektlar nomlari, dori-darmon va mahsulot brendlari sifatida — qo'llaniladi. Venus, Mars, Mercury, Apollo kabi mifonimlar dunyo miqyosida tanilgan va global madaniy lug'atning bir qismiga aylangan. O'zbek mifonimlarining tarqalish doirasi esa ko'proq mintaqaviy va mahalliy madaniyat bilan cheklangan. Alpomish, Barchinoy, Qoraqush kabi nomlar o'zbek va qardosh turkiy xalqlar madaniyatida muhim o'rin egallasa-da, ularning xalqaro miqyosdagi tanilganligi hali yetarlicha emas. Bu holat nafaqat madaniy, balki tarixiy-siyosiy omillar bilan ham belgilanadi.

Frazeologik birliklar mifonimlarning tirik holda saqlanishida eng muhim mexanizmlardan birini tashkil etadi. O'zbek tilida «Alpomishdek kuch», «Semurg'ning pargi» kabi iboralar mifologik nomni zamonaviy muloqotga olib kiradi. Ingliz tilida esa «Pandora's box», «Midas touch», «Herculean task», «Mercury's speed» kabi iboralar kundalik nutqda erkin qo'llaniladi. Shu bilan birga, ikkala tilda ham badiiy adabiyot mifonimlarning ma'naviy-ekspressiv imkoniyatlarini eng to'liq namoyon etadigan makon hisoblanadi. Mifonimlar shoirlar va yozuvchilar tomonidan mazmunga chuqurlik va ko'p qatlamlilik baxsh etish maqsadida ongli ravishda tanlangan poetik vosita sifatida qo'llaniladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, mifonimlar o'zlashuv jarayonida ham qiziqarli lingvistik hodisalarni namoyish etadi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga, shuningdek boshqa tillardan o'zbek tiliga o'zlashgan ba'zi mifologik nomlar o'z fonetik va semantik qiyofasini o'zgartirgan. Masalan, grek mifologiyasining qahramoni Prometey nomi o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan va ko'proq ilmiy-publitsistik matnlarda uchraydi. Bunday o'zlashuv jarayoni mifonimlarning faqat bir tilga xos hodisa emasligini, balki ular madaniyatlararo ko'priq vazifasini ham bajarishini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi mifonimlar nafaqat

mifologik tizimlarning o'ziga xos in'ikosi, balki ikkala xalqning madaniy identitetini, tarixiy xotirasini va estetik dunyoqarashini saqlovchi jonli leksik qatlam hamdir. Lingvokulturologik yondashuv mifonimlarni faqat onomastik birlik sifatida emas, balki xalq ma'naviyatining belgisi va madaniy informatsiya tashuvchisi sifatida o'rganish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishda qiyosiy tadqiqotlarni davom ettirish, turli tillar mifonimik tizimlarini keng qamrovda solishtirish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb va perspektiv vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov H. O'zbek onomastikasi. – Toshkent: Fan, 2001. – 248 b.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
4. Mirzayev I. O'zbek tilida mifologik leksika. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 184 b.
5. Raximova M. O'zbek folklorida ramziy nomlar tizimi. – Toshkent: Fan, 2011. – 166 b.
6. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 290 b.
7. Телия В. Н. Русская фразеология. – Москва: Языки славянской культуры, 1996. – 288 с.
8. Tursunov B. O'zbek mifologiyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2008. – 198 b.
9. Успенский Е. А. Миф и символ. – Санкт-Петербург: Наука, 2010. – 312 с.
10. Watts N. Mythological names in English phraseology. – London: Routledge, 2018. – 244 p.
11. West M. L. Greek mythology and the ancient world. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 480 p.
12. Yuldasheva G. O'zbek tilida mifologik obrazlar semantikasi: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2020. – 156 b.